



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-oktyabr

## RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-oktyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 1575,8 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Ta'lim sohasidagi xizmatlarining o'sish sur'ati 141,0 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1919,6 ming.so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushining oshishiga olib keladi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1575,8 mlrd.so'mga teng bo'ldi.


Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (33,2 %) tashkil etadi.

## 2018 yil yanvar-oktyabr oylarida ko'rsatilgan



Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtlarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozir kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashtirishida hal qiluvchi ro'l o'ynaydi.


### 2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2018 yil yanvar-oktyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan ta'lim sohasidagi xizmatlar (41,0 %), ijara xizmatlari (40,8 %), moliyaviy xizmatlar (27,2 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (18,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (9,4 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1919,6 ming.so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 107,8 % ni tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar-oktyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulush, %



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush - savdo xizmatlari (33,2 %), transport xizmatlari (18,8 %), moliyaviy xizmatlar (15,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (8,1 %) ni tashkil etadi.

**2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
bozor xizmatlari**

	Hajmi mlrd. so'm	O'sish sur'ati,% hisobida	Umumiy hajmga nisbatan % hisobida
<b>Jami xizmatlar</b>	<b>1575,8</b>	<b>109,5</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan : xizmat turlari bo'yicha</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	127,9	109,4	8,1
moliyaviy xizmatlar	242,6	127,2	15,4
transport xizmatlari	296,8	102,9	18,8
<i>shu jumladan:</i>			
avtotransport xizmatlari	286,4	104,7	18,2
yashash va ovqatlanish xizmatlari	40,2	104,2	2,5
savdo xizmatlari	522,5	104,0	33,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	46,9	103,7	3,0
ta'lim sohasidagi xizmatlar	75,2	141,0	4,8
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	22,3	118,3	1,4
ijara xizmatlari	37,1	140,8	2,4
kompyuterlar va maishiy tovarlarni, ta'mirlash xizmatlar	48,9	103,2	3,1
shaxsiy xizmatlar	45,8	103,4	2,9
me'morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	17,5	106,3	1,1
boshqa xizmatlar	52,1	101,8	3,3

**Xizmatlar sohasi statistikasi  
bo'limi**

Mas'ul: Sh.Usmonqulov  
(0371)-230-86-31  
(0367)-225-29-20